
Rasmiy munosabat

Ijtimoiy tarmoqlarda “Yoyilmadan murojaat” nomli videomurojaat yuzasidan tuman hokimligi quyidagilarni ma’lum qiladi. Rishton tumani Yoyilma qishlog’ida joylashgan Avtogaraj bino va inshootlari Rishton tumani hokimining 15.02.2005-yildagi 92-sonli “Yoyilma agroservis” nomli muqobil MTP tashkil etish to’g’risida”gi qarori va 05.03.2005 yildagi “topshirish qabul qilish” dalolatnomasiga asosan Yoyilma agroservis” MChJ MTPga tegishli. Ushbu qaror va dalolatnoma asosida 16.07.2014 yilda rasmiylashtirilgan kadastr xujjatlariga asosan umumiy yer maydoni 8236,23 kv.m, shundan qurilish egallagan yer maydoni 1186,68 kv.mdan iborat bo’lgan. Rishton tumani “Yoyilma agroservis” MChJ MMTPning soliqlardan bo’lgan qarzdorligi yuzasidan unga tegishli bino va inshootlari MIB Rishton tuman bo’limi tomonidan xatlanib “E-ijro auksion” sayti orqali savdoga qo’yilgan, Rishton tumani Yoyilma qishlog’i hududida joylashgan umumiy maydoni 0,82 gektar bo’lgan avtogaraj bino-inshootlari “Sobirjon Saxovat yulduzi” nomli fermer xo’jaligi tomonidan sotib olingan.Sotib olingan mulkni qabul qilib olish yuzasidan “Sobirjon Saxovat yulduzi” fermer xo’jaligi va MIB tuman bo’lim ijrochisi joyga borilganda fuqarolar tomonidan uy-joylar qurib olinganligi, mazkur uy-joylarga tuman hokimining O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar hamda o’zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo’yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o’tkazish to’g’risida» 2018 yil 20 apreldagi PF-5421-son farmoni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari haqidagi 2018 yil 21 iyun kungi 461-sonli qaroriga asosan, mulk huquqini e’tirof etuvchi qarorlari chiqarilganligi aniqlangan.Jumladan, besh nafar fuqarolar, ya’ni Jamoldinov Roshanjoniga Rishton tumani hokimining 31.05.2019 yil 3629 sonli qarori bilan umumiy yer maydoni 0,1598 ga qurilish egallagan maydoni 81,75 kv.m, Gopirova Mavludaxonga Rishton tumani hokimining 24.10.2018 yil 2241-sonli qarori bilan umumiy yer maydoni 0,06 ga qurilish egallagan maydoni 17,39 kv.m, Axmadaliev Gulmiraxonga Rishton tumani hokimining 24.10.2018 yil 2240-sonli qarori bilan umumiy yer maydoni 0,06 ga qurilish egallagan maydoni 66,70 kv.m, Sotivoldiev Muydinjoniga Rishton tumani hokimining 06.09.2019 yil 6218-sonli qarori bilan umumiy yer maydoni 0,0658 ga qurilish egallagan maydoni 16,81 kv.m xamda Eshaliev Dostonbeklarga Rishton tumani hokimining 19.05.2019 yil 3277-sonli qarori bilan umumiy yer maydoni 0,06 ga qurilish egallagan maydoni 70,95 kv.mga nisbatan mulk huquqi e’tirof etilgan.Shuningdek, mazkur hududda Boboraximov Muxammadali Boxodirovich foydalanishidagi jami 0,1207 kv.m, umumiy qurilish egallagan maydoni 181,81 kv.m bo’lgan uy-joyiga inventar kadastr hujjati mavjudligi ma’lum bo’ldi. Keyinchalik, “Sobirjon Saxovat yulduzi” fermer xo’jaligi rahbari S.Yuldashevning arizasi, Farg’ona tumanlararo ma’muriy sudi tomonidan ko’rib chiqilgan va 19.05.2021 yil kungi hal qiluv qarori bilan Rishton tumani hokimining 24.10.2018 yil 2241-sonli qarori, Rishton tumani hokimining 31.05.2019 yil 3629-sonli qarori, Rishton tumani hokimining 06.09.2019 yil 6218-sonli qarori haqiqiy emas deb topilgan.Bundan tashqari, “Sobirjon Saxovat yulduzi” fermer xo’jaligi rahbari S.Yuldashevning arizasi, Farg’ona tumanlararo ma’muriy sudi tomonidan ko’rib chiqilgan va 24.07.2021 yildagi hal qiluv qarori bilan Rishton tumani hokimining 19.05.2019 yil 3277-sonli qarori va Rishton tumani hokimining 24.10.2018 yil 2240-sonli qarori haqiqiy emas deb topilgan. Rishton tuman “Sobirjon Saxovat yulduzi” fermer xo’jaligining yer uchastkasiga bo’lgan huquqlari belgilangan tartibda Davlat ro’yxatidan o’tkazilgan.

2022-12-15 15:02:16